

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

## KUSHKANATOG‘ KONI TABIIY ARALASH TUZI ERITMALARINING KIMYOVIV TARKIBI VA REOLOGIK HOSSALARINI TADQIQOTI

Raxmatjonov O‘.D., Mirzaqulov X. Ch., Yorbobayev R. Ch., Saidova D.Sh

Toshkent kimyo texnologiya instituti., e-mail: [otkrraxmatjanov@gmail.com](mailto:otkrraxmatjanov@gmail.com)

O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri tabiiy xomashyolarni o‘zlashtirish, ularni kompleks qayta ishlash, raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi maxsulotlarni mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish hisoblanadi. Bunday kimyoviy mahsulotlar qatoriga, natriy va magniy sul’fatlarni kiritish mumkin, ushu mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj sanoat va ishlab chiqarish miqiyosida bu magniy sulfat va natriy sulfatlarga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda [1, 2].

Respublikamiz xomashyo zahiralari boy mamlakat hisoblanadi va mineral tuzlar mavjud bo‘lgan konlar ko‘plab topiladi. Shu konlardan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan Kushkanatog‘ koni mana shunday konlardan biri hisoblanadi. Kushkanatog‘ mineral tuzlar koni Qoqaqalpog‘iston Respublikasining Chimboy tumanida joylashgan bo‘lib, Chimboy shahridan 30 km shimoliy g‘arbda, Ko‘shkanatog‘ cho‘qqisidan janubda, Amudaryo deltasida joylashgan [3, 4].

Astraxanit aralash tuzlarining 1-namunasidan tayyorlangan q:s=1:2,5 nisbatdagi va to‘yingan eritmalar hamda 1 va 2 fil‘tratlarning kimyoviy tarkiblari mass., % da aniqlangan bo‘lib, bunda q:s=1:2,5 nisbatdagi va to‘yingan eritmalar SO<sub>4</sub> – 12,91 va 23,47, Mg – 1,37 va 2,64, Na - 4,04 va 7,47, Cl-1,18 va 1,95, Ca - 0,24 va 0,37, K - 0,07 va 0,09 hamda H<sub>2</sub>O – 74,02 va 63,25 %, 1 va 2-fil‘tratlarda SO<sub>4</sub> – 25,27 va 23,35, Mg – 2,19 va 2,26, Na - 9,65 va 7,47, Cl-2,62 va 2,76, Ca - 0,38 va 0,39, K - 0,07 va 0,08 hamda H<sub>2</sub>O – 62,48 va 61,25 % miqdorda mavjudligi kimyoviy tahlillar asosida aniqlangan va olingan natijalar qo‘yidagi 6-jadvalda keltirilgsan.

### 6-Jadval

#### Tabbiy astraxanit aralash tuzlari namunalari to‘yingan eritma va filtratlarlarining kimyoviy tarkibi

To‘yingan eritma va filtratlar	Eritmalarining kimyoviy tarkibi, mass., %						
	SO <sub>4</sub>	Mg	Na	Cl	Ca	K	H <sub>2</sub> O
Q:S=1:2,5 nisbatdagi eritma	12,91	1,37	4,04	1,18	0,24	0,07	74,02
To‘yingan eritma	23,47	2,64	7,47	1,95	0,37	0,09	63,25
1 - filtrat	25,27	2,19	9,65	2,62	0,38	0,07	62,48
2 - filtrat	20,35	2,26	7,47	2,76	0,39	0,08	61,25

Olingan natjalardan ma‘lum bo‘ldiki, tuyinmagan va to‘yingan eritmalar hamda fil‘tratlar tarkibidagi suv miqdori kamayishi hamda ular tarkibidagi komponentlarning ortishi bilan eritma va fil‘tratlarning zichligi va qovushqoqligining ortishi hamda haroratning ortishi bilan esa ushu eritmalarining reologik hossalarining kamayishi ko‘zatilgan. Olingan natjalarni texnologik baxolash uchun q:s=1:2,5 nisbatdagi eritma, To‘yingan eritma hamda 1 va 2 – filtratlarining reologik xossalari-zichligi va qovushqoqliklarining olingan natjalari 9-jadvalda keltirilgan.

### 9-Jadval

#### Kushkanatog‘ konidagi astraxanit qatlamidan olingan tabbiy aralash tuzlari namunalarining kimyoviy tarkibi

№	Eritma va filtratlar	Zichlik, g/sm <sup>3</sup>				Qovushqoqlik, sPa			
		20 °C	40 °C	60 °C	80 °C	20 °C	40 °C	60 °C	80 °C
101									

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

1	Q:S=1:2,5 nisbatdagi eritma	1,235	1,229	1,220	1,211	2,529	1,619	1,113	0,609
2	To‘yingan eritma	1,382	1,371	1,360	1,349	7,182	4,112	2,354	1,336
3	1 – filtrat (s.f.)	1,313	1,302	1,292	1,282	6,823	3,906	2,236	1,269
4	2 – filtrat (s.f.)	1,260	1,250	1,240	1,231	6,550	3,750	2,147	1,218

Keltirilgan 9-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, q:s=1:2,5 nisbatdagi eritma va uni bug‘latib olingan to‘yingan eritmalarining xossalari-zichligi va qovushqoqligiga haroratning ta‘sirlari o‘rganilgan bo‘lib, bunda 20 °C haroratda zichlik 1,235-1,382 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 2,529-7,182 sPa gacha, 40 °C da zichlik 1,229-1,371 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 1,619-4,112 sPa gacha, 60 °C da zichlik 1,220-1,360 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 1,113-2,354 sPa gacha, 80 °C da zichlik 1,211-1,349 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 0,609-1,336 sPa gacha ortishi, 1 va 2-filtratlarning 20 °C haroratda zichligi 1,313-1,260 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 6,823-6,550 sPa gacha, 40 °C da zichlik 1,302-1,250 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 3,906-3,750 sPa gacha, 60 °C da zichlik 1,292-1,240 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 2,236-2,147 sPa gacha, 80 °C da zichlik 1,282-1,231 g/sm<sup>3</sup> ga va qovushqoqlik 1,269-1,218 sPa gacha kamayishi aniqlangan.

Bunda Kushkanatog‘ koni aralash tuzlarining birinchi namunasidan tayyorlangan 1:2,5 nisbatdagi eritma va uni bo‘g‘latib olingan to‘yingan eritma hamda to‘yingan eritmadaan MgSO<sub>4</sub>•7H<sub>2</sub>O va Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>•10H<sub>2</sub>O kristallogidratlari fil‘trlash orqali ajratilgan fil‘tratlarning reologik hossalariga uning tarkibidagi tuzlar va haroratning ta‘sirlari o‘rganilgan.

**Xulosa.** Ko‘shkanatog‘ koni tabiiy aralash tuzlari namunasidan dastlab q:s= 1:2,5 nisbatdagi erirmasi tayyorlab olingan va uni 80 °C haroratda bo‘g‘latish hosil bo‘lgan to‘yingan eritma hamda magniy va natriy sulfatlari ajratilagan 1, 2 –filtratlarning kimyoiy tarkibi va reologik hossalarining tadqiqot natijalari olingan va jadval ko‘rinishida ushbu maqolada keltirilgan.

## Foydalanolgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзакулов Х.Ч., Жураева Г.Х. “Производство сульфата натрия”. -Ташкент, 2014.-224 с. ISBN 978-9943-381-99-5.
2. U. D. Rakhmatzhanov and Kh. Ch. Mirzakulov. Polythermal Solubility of the MgSO<sub>4</sub> – Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – H<sub>2</sub>O System// Physical methods of investigation // ISSN 0036-0236, Russian Journal of Inorganic Chemistry, 2023, Vol. 68, No 11, pp.1606-1610.
3. Патент РУз № IAP 04526. Способ переработки природных рассолов, содержащих хлориды и сульфаты натрия и магния / Турабжонов С.М., Мирзакулов Х.Ч., Асамов Д.Д., Халмуминов С.А., Кузнецова Ж.Н., Бардин С.В., Тоджиев Р.Р., Бобокулова О.С., Джураева Г.Х. // Расмий ахборотнома. – 2012. - №7.
4. Позин М.Е. Технология минеральных солей. В 2-х т. – Л.: Химия. 1974. Т.1. – 791 с.